XALQ DEPUTATLARI PAYARIQ TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 16 - dekabr VI-73-296-7-100-K/22 Payariq tumani hokimligi

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yildagi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 7-noyabrdagi 06/04-32-3856-sonli hamda Samarqand viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30-noyabrdagi 01/02-38/878-sonli tavsiya xatlari, tuman Davlat soliq inspeksiyasining 2022-yil 1-dekabrdagi 15/1-11633-sonli xati hamda tuman hokimligi Moliya bo‘limining 2022-yil 2-dekabrdagi 01-02-32/440-sonli xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-, 52-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib tamoyillar to‘g‘risidagi” Qonunining 59-moddasi 2-bandi, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining VI chaqiriq, yetmish uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yildagi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qarorining 1-ilovasidagi 2-, 5-, 7-, 8-bandlari ilovaga muvofiq yangi tahrirda bayon etilsin.

- Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi

“Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yildagi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qarorining 1-ilovasidagi 2-, 5-, 7-, 8-bandlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

2. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi mudiri (K.Narimonovga) Payariq tumani mahalliy byudjetining 2022-yil tasdiqlangan daromadlari rejasiga Samarqand viloyat hokimligi Moliya bosh boshqarmasini xabardor qilgan holda tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (D.Hamidov) hamda “Payariq hayoti” gazetasi bosh muharriri (A.Tavboyev) ushbu qarorni rasmiy e’lon qilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

4. Mazkur qaror rasmiy manbalarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (L.Kazakbayev) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Ollanov) zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashi raisi **Z.Ergashev**

Xalq deputatlari Payariq tuman
Kengashining
2022 yil 16 dekabrdagi
VI-73-296-7-100-K/22-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Payariq tumani Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi “Payariq tumani mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi hamda 2022-yildagi mahalliy byudjetning belgilangan asosiy parametrlari to‘g‘risida”gi VI-49-3-7-100-K/22-sonli Qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. 1-ilovada:

Korxonalar aylanmasidan olinadigan soliq pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

ming so‘mda

T/r	Daromad turi	Summasi
2	Aylanmadan olinadigan soliq	6 515 900,0

Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

T/r	Daromad turi	Summasi
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	12 734 100,0

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

T/r	Daromad turi	Summasi
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 649 400,0

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

T/r	Daromad turi	Summasi
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 807 000,0